



## History of study of the monuments of paleometallic era of the Tashkent oasis

Orif ERGASHEV<sup>1</sup>

National Center of Archeology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received September 2022  
Received in revised form  
25 September 2022  
Accepted 20 October 2022  
Available online  
25 November 2022

**Keywords:**

Bronze Age,  
Early Iron Age,  
Tashkent oasis,  
Andronovo culture,  
Burguluk culture,  
Tazabagyab culture,  
burial mounds,  
dwelling house.

### ABSTRACT

This article is devoted to the history of the study of archaeological monuments of the Bronze Age and Early Iron Age of the Tashkent oasis. It highlights the results of the history of archaeological research carried out from the late XIX – early XXI centuries. The socio-economic problems of these periods are also partially described.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss10/S-pp249-256>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Toshkent vohasining paleometall davri yodgorliklarining o'rganilish tarixi

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

bronza davri,  
ilk temir davri,  
Toshkent vohasi,  
Andronov madaniyati,  
Burgulik madaniyati,  
Tozabog'yob madaniyati,  
qabr-qo'rg'on, yerto'la uylar.

Ushbu maqola Toshkent vohasining bronza va ilk temir davri arxeologik yodgorliklarining o'rganilish tarixiga bag'ishlangan. Unda XIX asrning oxiridan XXI asrning boshlarigacha amalga oshirilgan arxeologik tadqiqot ishlarining natijalari yoritilgan. Shuningdek, mazkur davrlar ijtimoiy-iqtisodiy masalalari ham qisman bayon qilingan.

<sup>1</sup> National Center of Archeology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

## История изучения памятников палеометаллической эпохи Ташкентского оазиса

### АННОТАЦИЯ

#### Ключевые слова:

Бронзовый век,  
раннежелезный век,  
Ташкентский оазис,  
Андроновская культура,  
Бургулюкская культура,  
Тазабагыбская культура,  
курганы, жилище  
землянки.

Данная статья посвящена истории изучения археологических памятников эпохи бронзы и раннежелезного века Ташкентского оазиса. В нем освещена результаты истории археологических исследований проведенных с конца XIX – по начало XXI веков. Также частично описаны социально-экономические проблемы этих периодов.

O'rta Osiyo hududida bronza davri jamiyat taraqqiyoti notekis kechganligi bilan tavsiflanadi. Mintaqaning sug'orma dehqonchilik erta qaror topgan janubiy o'lkalarida bronza davrining ilk bosqichidan sivilizasiya ancha erta qaror topgan Qadimgi Sharq markazlariga xos ixtisoslashgan ishlab chiqarish, stratifikasiyalashgan jamiyat taraqqiyotiga ega bo'lgan ilk shahar (Oltintepa) madaniyatining qaror topishi kuzatiladi [V.M. Masson 1981]. Bronza davrining keyingi bosqichlarida mazkur jamiyatning yanada taraqqiy etishi (Gonur, Jarqo'ton) jaryoni kechgan [V.I. Sarianidi 2006; A.A. Askarov, T.Sh. Shirinov 1993]. Bu davrda O'rta Osiyoning shimoliy qismida Kaltaminor madaniyatining inqirozi va uning o'rnida bronza davri o'troq jamoasi madaniyatlarining vujudga kelishi bilan tavsiflanadi.

Bizga ma'lumki, mil. avv. III-II ming yillikda Yevrosiyo hududi quruqlashib borishi natijasida mintaqaning shimoliy qismida yashagan ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligi bilan kun kechirgan Srub-Andronov madaniyatiga mansub aholining janubga tomon siljishi sodir bo'ladi. Ushbu jarayon ayniqsa, mil. avv. II ming yillikning ikkinchi yarmidan kuchayib, Andronov madaniyatiga oid aholining O'rta Osiyo hududiga ko'chib kelish jarayoni jadallashadi.

Yevrosiyoning bronza davri dasht hududiga xos chorvador qabilalar madaniyati Amudaryoning Oqchadaryo o'zani hududida [M.A. Itina 1977], Farg'onaning janubi-g'arbida [B.A. Litvinskiy, A.P. Okladnikov, V.A. Ranov, 1962] Zarafshon vohasida [A.A. Asqarov 1969, 1970; A.I. Isakov, T.M. Potemkina 1989; S. Bostonguxar (Bobomulloev) 1998] Murg'ob vohasining shimoli-g'arbiy yerlarida [V.I. Sarianidi 1975], Janubiy Tojikiston hududida [L.T. Pyankova 1989, M.N. Vinogradova 2004; M.N. Vinogradova, Yu.G. Kutimov 20018] va boshqa joylarda tarqalgan.

Yevrosiyoning shimoliy qismidagi ko'chmanchi chorvador aholi bilan janubiy o'troq dehqonchilik o'lkalari aholisi chegarasida joylashgan Toshkent vohasi muhim rol o'ynagan deb aytsak adashmaymiz. Ushbu hududda bronza davriga oid moddiy madaniyat yodgorliklarini turli xilda topilgan moddiy ashyolar, ayrim qabr-qo'rg'onlar hamda kam sonli aholi uy-joylarida ko'rish mumkin.

Toshkent vohasi joylashuvi va tabiatining qulayligi bu hududda qadimdan insonlar tomonidan o'zlashtirilishiga sabab bo'lgan. Vohadan oqib o'tuvchi Ohangaron daryosining qadimda sersuvligi, atrofida unumdor vohalar va turli yovvoyi hayvonlarga boy to'qayzorlar bilan o'ralganligi insonlar uchun qulay sharoitlar yaratgan. Shu sababli bugungi kundagi Tuyabo'g'iz suv ombori hududida bronza davriga oid ko'plab yodgorliklar o'rganilgan. Toshkent vohasining bronza davriga oid moddiy madaniyat

yodgorliklarini o'rganish O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan zabt etilganidan keyin boshlangan. XIX asrning oxiriga oid Chirchiqning yuqori oqimida oltin mavjudligi to'g'risida xabar topgan Nikolay 1898-yilda Chimboyliq va Soyliq qishloqlari o'rtasida joylashgan Akrom ovulda amalga oshirgan shurflash ishlari natijasida "Chimboyliq xazinasi" nomi bilan fanga kirgan bolta, bargsimon pichoq, bigiz va 585 gramm bronza yombisi o'rin olgan moddiy ashyolarni topgan.

O'zbekiston xalqlari muzeyida saqlangan mazkur moddiy ashyolarni keyinchalik M.E. Vorones o'rganib chiqib, ularning bronza davriga oidligini aniqlagan. Xazina tarkibidagi bolta va bronza yombini E.E. Kuzmina Srub madaniyatining yakuniy bosqichi bilan sanalab, Toshkent vohasi Qoramozor metall konlariga asoslangan alohida metallurgiya markazini tashkil etganligini bildirgan.

1927-yilda Toshkentning sharqida o'z davrida "Nikiforov yerlari" deb yuritilgan joyda (hozirgi Do'rmon) yer ishlari mutaxassisi I.A. Anboev qishloq xo'jalik yerlarini tekislash paytida yerdan 1,85 sm. chuqurlikda joylashgan buzilgan qabrga duch kelgan. Undan marhum bilan birga qo'shib ko'milgan bir dona sopol kosa chiqqan. Sopol buyum qo'lda yasalgan, sirtiga taroqsimon naqsh solingan, bo'g'zidan pastida uch qator siniq chiziqlar va ulardan pastda uchburchak hosil qilgan egri-bugri naqsh chizilgan. Ushbu sopol buyumi bronza davri Tozabog'yob madaniyatiga oid yodgorliklardan topilgan sopollardan shakli jihatdan ham, sirtiga chizilgan naqshiga ko'ra ham hech qanday farq qilmaydi.

1937-yili G.V. Oboldueva Yangiyo'l shahri yaqinida, Chirchiq daryosi o'ng sohilining baland qismida joylashgan bronza davriga oid qabrni (balandligi 3 m, diametri 8-metr) qazib o'rgangan. Qabrda yosh bola o'ng biqini bilan g'ujanak yotgan holatda qo'milgan mayitning bosh qismidan qo'lda yasalgan chuqur kosa topilgan. Kosa qizg'ish-jigarrang loydan og'zi keng, tagi yassi qilib yasalgan. Qabrda boshqa topilma uchramagan. Sopol buyumini tadqiqotchi mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmi bilan davrlashtirgan.

1940-yilda A.I. Terenojkin Toshkent kanali qurilish hududining bir nechta joyidan bronza davriga oid sopol parchalari, bronzadan yasalgan turli xil buyumlarni topib o'rgangan. Ulardan O'rtasaroy qishlog'i yaqinidagi 7-punktidan topilgan keng tig'li pichoq va uzun bigizlarni tadqiqotchi mil. avv. II ming yillikning birinchi yarmi bilan davrlashtirgan. Tadqiqotchi Beshboy qishlog'i janubidagi 14-punktida aniqlangan qabrdan chiqqan ikki dona sopolni, Qoratosh qishlog'i yaqinidagi 36-punktidan topilgan bir dona sopolni, o'z davrida Orexov nomi bilan yuritilgan qishloqdagi 16-punktidan topilgan kelt (bolta) va Angar qishlog'idagi 12-punktidan topilgan kamon paykonini bronza davrining ikkinchi yarmi bilan davrlashtirib, ularni Andronovo madaniyatining O'rta Osiyo turiga mansub, deb hisoblagan. Ulardan 14-punkt sopollari yasaliş usuli va sirtiga chizilgan naqshlari bilan quyi Amudaryo hududidagi so'nggi bronza davriga oid Tozabog'yob madaniyati yodgorliklaridan topilgan sopollardan unchalik ham farq qilmaydi.

1945-yilda Chotqol daryosining o'ng sohilda joylashgan Obirahmat qishlog'ida yerni portlatish paytida geolog G.G. Grushin yer ustidan to'rt dona bilakuzuk topib oladi. Bu paytda Chimboyliqda tekshirish ishlarini olib borayotgan M.E. Vorones va T.Mirg'iyosovlar mazkur topilma joyini tekshirib, ustiga tosh terilgan bir nechta qabr-qo'rg'ondan odamlarning suyagi, sopol buyumlar va metall buyumlarini aniqlagan. Topilmalarni M.E. Vorones mil. avv. XII-XI asrlar bilan sanalagan.

Chirchiq daryosining yuqori oqimi o'ng sohilida, Chirchiq temir yo'li bo'yida Iskandar qishlog'ida Andronov madaniyatining Fedorov bosqichiga oid bronzadan quyib yasalgan 5 dona bilakuzuk topilgan. Bilakuzuklar novsimon shaklda yasilib, konussimon shoxchalariga ega bo'lgan.

1967-yilda O'zR FA Tarix va arxeologiya instituti Bo'zsuv arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan Toshkentdan 20-25 km shimoli-sharqda Qoraqamish anhorining boshlanishi Yonariq degan joyda joylashgan Serkali makoni topib o'rganilgan. Yodgorlikda tadqiqotchilar jami 14-15 dona bezakli va bezaksiz idishlardan iborat 170 dan ortiq sopol parchalarini terib olishgan. Ularni tadqiqotchilar Andronov madaniyatining Alakul bosqichi bilan davrlashtirgan. Sopollar asosan yassi tagli va qisman dumaloq tagli nusxalari ham uchraydi. Sopollar bronza davriga xos bo'lgan tasma usulida ishlangan. Ularning ba'zilarini sirtiga naqsh chizilgan. Naqshlar besh qator egri-buri chiziqlardan iborat. Shuningdek, naqshlar orasida katta tishli shtamp bilan qo'llaniladigan archa bezaklari bilan bezatilganlari uchraydi. Yodgorlikda o'sha davrga tegishli bironta ham nafis qilib ishlangan qozonlar uchramaydi. Hayvonlarning suyagi va bronza buyumi, xususan, taqinchoq bo'lagi ham topilgan. Naqshli sopollar mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi bilan davrlashtirilgan. Sopol buyumlari "Nikiforov yeri" qabridan topilgan sopol buyumidan unchalik ham farq qilmaydi.

1970-yilning oxirida Chirchiq daryosining yuqori oqimi hududida Chorvoq suv omborining barpo etilishi munosabati bilan O'z FA Tarix va arxeologiya instituti va O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi yangi qurilish hududida tadqiqot ishlarini olib borishdi. Tadqiqotlar davomida ushbu hududda 150 dan ortiq qadimiy yodgorliklar shu jumladan ochiq makonlar topib tekshirildi. Chotqol vodiysining quyi qismi va Chirchiqning yuqori qismi 1950–1951-yillar Toshkent davlat universiteti arxeologiya kafedrasidan o'rganilgan. 1954 yoki 1955-yil O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya va tarix instituti ushbu hududdan bronza buyumlar, shu jumladan nayzaning uchi, o'qlar uchlari va ot jabduqlar topib o'rganilgan. A. I. Terenojkinning fikriga ko'ra, bu topilmalar bronza davrining yakuniy bosqichiga tegishlidir. Shuningdek, ushbu hududda bir nechta (1-5) qabr-qo'rg'onlar o'rganilgan. Ulardan 5-raqamli qabr-qo'rg'onni qazish natijasida bronzadan yasalgan zeb-ziynat buyumlari topilib, tadqiqot xulosalariga ko'ra ularning Andronov, Karasuk, Amirabod madaniyatlari bilan yaqinligi ta'kidlangan.

1972-yilda Yu.F. Buryakovning daryoning o'ng qirg'og'ida qazish ishlari olib borgani uni keyingi o'rganishga turtki bo'ldi. Ohangaron yarim qazilma, plani oval bo'lib, madaniy qatlami 1 m chuqurlikka cho'zilgan. Zaminda turli xil dizayndagi foydali chuqurliklar va o'choqlar topilgan. Yarim qazilma to'ldirishda Burgulyuk tipidagi sopol buyumlar parchalari, shlak, bronza o'roq parchasi topilgan.

1974-1977-yillarda O'zR FA Arxeologiya instituti Shosh-Iloq ekspeditsiyasi Tuyabo'g' iz suv ombori hududida tizimli ravishda qazuv ishlari olib borilgan. 1976–1977-yillarda daryoning chap qirg'og'ida Ohangaron 1a qazishma joyida ikkita birlashtiruvchi yarim chuqurchadan iborat ikki xonali turar-joylar topilgan. Amalga oshirgan qidiruv ishlarida Burgulik madaniyatiga oid 4a ob'yekt yaqinidan taxminan 5 ta buyumga tegishli 25 dona sopol parchalari terib olingan. Topilmalarga asoslanib bu joy suv ombor yuvib yuborgan qadimgi manzilgohning o'rni bo'lishi mumkin deya taxmin qilingan. Sopollarning ko'pchiligi sirtiga tig'li narsa bilan naqshlar chizilgan. 12X16 m o'lchamdagi kichik maydonda topilgan keramika bo'laklari deyarli barchasi shunchalik kichikki, ular shaklini tiklashga imkon bermaydi. Sopollar sirtiga chizilgan naqshlarda

archa nina barglari hamda gorizonttal shakldagi zigzaglardan iborat. Tadqiqotchi ushbu sopol parchalarini quyi Amudaryo yerlarida tarqalgan Tozabog'yob madaniyati sopollari bilan bir xilligi va xronologik jihatdan yaqin bo'lganligi haqida xulosalar qiladi.

Mingo'rik manzilgohi yaqinida Chiliduxtarontepa qabristonida Andronovo madaniyatiga oid uchta chuqur qabr o'rganilgan. Ulardan yassi tagli sopollar, munchoq va bronza taqinchoq topilgan. Shoshtepa manzilgohidagi Burgulik madaniyatiga oid sopollar orasida uchragan sirtiga tishsimon, tirnoqsimon va egri o'yma naqsh chizilgan sopollarni tadqiqotchi mil. avv. X-VIII asrlarga oid Begazi-Dandibay madaniyati materiallari bilan o'xshashligini ta'kidlagan. Shoshtepa manzilgohining aralashgan madaniy qatlamidan sochga taqiladigan aylana shaklli oltindan yasalgan baldoq (diametri 1,9 sm) topilgan. Bu topilma mil. avv II ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmi bilan sanalangan.

XX asrning 60-yillarida Toshkent viloyati janubiy tumanlarining qishloq xo'jalik yerlarini suv bilan ta'minlash maqsadida qurilgan Tuyabo'g'iz suv ombori hududi Burgulik madaniyatini o'rganish maydoniga aylanadi. 1971-yilda V.I. Sprishevskiy rahbarligidagi O'zFA Arxeologiya instituti Shosh-Iloq otryadi suv ombor hududida joylashgan Kindiktepa manzilgohining arkida qazishma ishlarini olib borib, Burgulik madaniyatiga oid yarim yerto'la uylarga duch kelgan. 1972-yili Yu.F. Buryakov mazkur manzilgohning arki va shahristonida qazishma ishlarini olib borish jarayonida ularning pastki qatlamida yarim yerto'la uy-joylarni qazib o'rgangan. Ulardan sirtiga naqsh chizilgan dumaloq tagli sopol buyumlar, chumakli qozon va bronza o'roq topilgan. Tadqiqotchi moddiy ashyolarni mil. avv. III-III asrlarda o'troqlashgan ko'chmanchilarga tegishli, deb hisoblagan.

1974–1977-yillarda Shosh-Iloq arxeologik otryadining Tuyabo'g'iz guruhi X.Duke rahbarligida suv ombor hududida muntazam tadqiqot ishlarini olib boradi. Arxeologik qazish ishlari har yili suv ombor suvi pasaygan avgust oyida amalga oshirilgan. To'rt yillik qazish ishlari natijasida daryoning o'ng sohilida 8 ta, chap sohilida 3 ta, jami 11 ta manzilgohlarda 4 tadan 14 tagacha uylar jamlangan 50 dan ortiq oval, aylana, to'g'ri to'rtburchak va kvadrat shaklli yarim yerto'la (uzunligi 2,6-6,5, eni 1,7-3,5 m.) yerto'la uylar ochilgan.

Daryoning chap sohilida joylashgan yirik manzilgohning (Manzilgoh 1) g'arbiy, shimoli-g'arbiy va janubi-g'arbiy tomonlarida eni 20-25 m, chuqurligi 2-2,5 m keladigan handak va 40-42x24x12 sm o'lchamli xom g'ishtdan terilgan 2 metrli mudofaa devor aniqlanib, mil. avv. IX-VIII asrlar bilan sanalangan va manzilgoh shakllanayotgan shahar sifatida tavsiflangan.

Lekin tadqiqotchi qayd etgan shakllanayotgan shaharning davomiyligi keyingi davrda kuzatilmaydi. O'zbekistonning janubiy tarixiy viloyatlarida (Baqtriya, So'g'd) ilk temir davri shahar turidagi manzilgohlari o'rnida dastlab o'troq dehqonchilik qishloqlari shakllanib, keyingi bosqichda, ya'ni mil.avv. VIII-VII asrlarda ularning (Ko'ktepa, Afrosiyob, Uzunqir) atrofi guvaladan qurilgan mudofaa devori bilan o'rab olinib, qadimgi shaharning arki shakllangan. Yerto'la uylardan iborat Tuyabo'g'iz qishlog'ida janubiy viloyatlardagi kabi tadrijiylik kuzatilmaydi. Aksincha, o'lkada yerto'la uy-joylar qurilishining davom etishi va mil. avv. IV asrning oxiri – III asrning boshlariga kelib chetdan shaharsozlik madaniyati an'anasining kirib kelishi namoyon bo'ladi.

Kavardan manzilgohi hududidan xlorit toshdan yasalgan muhr topilgan. Bunday muhrlar O'rta Osiyo va Eronning bronza davri yodgorliklarida ko'plab uchraydi. Kavardan manzilgohidan topilgan muhrni S.R. Baratov Toshkent vohasida O'rta Osiyoning janubiy o'lkalarida faoliyat yuritgan bronza davri Nomozgoh VI madaniyati an'alarining tarqalishi bilan izohlaydi.

Toshkent vohasining Olmaliq shahri yaqinidagi Quyun qishlog'i yaqinidagi makonning quyi qatlamidan yerto'la uy-joy aniqlanib, Andronov madaniyatining Fedorov bosqichiga oid sopol va bronzadan yasalgan buyumlar topib o'rganilgan. Yuqori madaniy qatlamida joylashgan materiallar Andronov va Burgulik madaniyatlariga oid.

Toshkent vohasining bronza davriga oid o'rganilgan barcha turdagi arxeologik yodgorliklarning tavsifi, qiyosi va qisman ma'lum madaniyatga mansubligi ilmiy ishlanmalarda bayon qilingan. XX asrning oxiriga qadar ma'lum bo'lgan barcha arxeologik yodgorliklarni E.E. Kuzmina umumlashtirgan holda ularni shartli ravishda Srub madaniyatining so'nggi bosqichi va Andronovo madaniyatining Fedorov bosqichiga ajratgan. Lekin o'lkaning bronza davri ijtimoiy-iqtisodiy munosabati bilan bog'liq masalalari nazardan chetda qolgan.

Lekin tadqiqotchi qayd etgan shakllanayotgan shaharning davomiyligi keyingi davrda kuzatilmaydi. O'zbekistonning janubiy tarixiy viloyatlarida (Baqtriya, So'g'd) ilk temir davri shahar turidagi manzilgohlari o'rnida dastlab o'troq dehqonchilik qishloqlari shakllanib, keyingi bosqichda, ya'ni mil.avv. VIII-VII asrlarda ularning (Ko'ktepa, Afrosiyob, Uzunqir) atrofi guvaladan qurilgan mudofaa devori bilan o'rab olinib, qadimgi shaharning arki shakllangan. Yerto'la uylardan iborat Tuyabo'g'iz qishlog'ida janubiy viloyatlardagi kabi tadrijiylik kuzatilmaydi. Aksincha, o'lkada yerto'la uy-joylar qurilishining davom etishi va mil. avv. IV asrning oxiri – III asrning boshlariga kelib chetdan shaharsozlik madaniyati an'anasining kirib kelishi namoyon bo'ladi.

Qanqa manzilgohi birinchi shahristoni (Shahriston I) hududida 1-qazilmasining quyi qatlamidan ham Burgulik madaniyatiga oid sopol buyumlar topilgan. Yuqorida Tuyabo'g'iz suv ombori hududida joylashgan Kindiktepa manzilgohi, xususan uning arki Burgulik madaniyatiga oid uy-joylarning ustida qurilganligi keltirilgan edi. Toshkent vohasining qadimgi shaharlarga asos solgan aholi Burgulik jamoasi tashlab ketgan yerto'la uylarining ustiga kelib joylashganligi aniqlashadi.

So'nggi yillarda ham Toshkent vohasida FA Milliy arxeologiya markazi arxeologlari tomonidan ham qidiruv-qazuv ishlari olib borilmoqda. Xususan, 2021-yil Surat Kubayev boshchiligidagi "Piskent otryadi" tomonidan Piskent shahri va uning utrofi o'rganilganda, mahalliy aholi tomonidan tashkil etilgan muzeyda ham Burg'ulik madaniyatiga tegishli sopol idishlar va tosh qurollar namunlari qayd etilgan (1-rasm).





**1-rasm. Bronza davri tosh va sopol buyumlari**

Toshkent vohasining bronza va ilk temir davrlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar yetarlicha o'rganilmagan. Faqat Burgulik madaniyatiga xo'jaligini Yu.F. Buryakov sug'orma dehqonchilik, X. Duke esa liman usulida sug'orishga asoslangan dehqonchilik sifatida tavsiflagan. Vohaning mazkur davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mavjud materiallarni chuqur ilmiy tahlil qilish, hududning tabiiy-geografik sharoitidan kelib chiqib, Sirdaryo orti hududi materiallari bilan qiyosiy tahlil qilish asosida o'rganish talab etiladigan masaladir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Воронец М.Э. Браслеты бронзовой эпохи Музея истории АН УзССР, Труды ИИА АН УзССР, Т I, Ташкент, 1948,
2. Кузмина Е.Е. Арии-путь на юг. М., "Летний сад", 2008.
3. Оболдуева Т.Г. Погребения эпохи бронзы в Ташкентской области. // КСИИМК, Вып. №59.
4. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья. М., «Наука», 1977.
5. Тереножкин А.И. Древнейшие земледельцы Ташкентского оазиса. // Древняя и средневековая культура Чача. Ташкент «Фан», 1979.
6. Воронец М.Е. Отчет археологической экспедиции Музея истории Академия наук УзССР о раскопах погребальных курганов первых веков н.э. возле ст. Вревская в 1947 г. // Труды Музея история народов Узбекистана, Вып. I. Ташкент, 1951.
7. Буряков Ю.Ф., Касымов М.Р., Растовцев О.М. Археологические памятники Ташкентской области. Ташкент «Фан», 1972.
8. Тереножкин С.А. Клад андроновских бронзовых предметов из с. Бричмула близ Ташкента, СА № 3, М.-Л., 1962.
9. Рахимов С. Стоянка эпохи бронза Серкали. // УИФ, №6, Ташкент, 1970.
10. Древности Чарвака. Ташкент, 1976.
11. Дуке Х. Новая стоянка эпохи бронзы Ташкентской области. УММТ, 15-нашр, Ташкент, "Фан", 1979.
12. Алимова Д.А., Филанович М.И. История Ташкента. Ташкент "Art Flex", 2009.
13. Исломов У.И., Баратов С.Р., Алимов К. Археологические работы в Паркентском, Бостанлыкском и Ахангаранском районах Ташкентской области. // Археологические исследования в Узбекистане в 2001 году. Самарканд 2002.

14. Максудов Ф.А., Ильясова С.Р. Куюн-поселение эпохи поздней бронзы-раннего железа в Ташкентском оазисе. ЎММТ, 40-нашр, Самарқанд 2018.
15. Тереножкин А.И. Памятники материальной культуры на Ташкентском канале. «Известия УзФАН», 1940 – № 9.
16. Григорьев Г.В. Краткий отчет о работах Янгиюльской археологической экспедиции 1937 г. Ташкент, изд. “ЎзФАН”, 1940.
17. Тереножкин А.И. Каунчи-тепа. «Известия Уз ФАН СССР». № 8, Ташкент, 1940.
18. Тереножкин А.И. Согд и Чач. КСИИМК, вып. XXXIII. М-Л., 1950.
19. Буряков Ю.Ф., Дадабаев Г. Памятники античного времени Ташкентском оазисе. ЎММТ №10, Ташкент “Фан”, 1973.
20. Спришевский В.И. Археологические памятники на берегах Ташкентского моря // История и археология Средней Азии. Ашхабад, 1978.
21. Буряков Ю.Ф., Алимов К., Бурякова Э.Ю. Исследования в зоне Туябугузского водохранилища. // «Археологические открытия 1972 года», М., 1973.
22. Буряков Ю.Ф. Раскопки в зоне Туябугузского водохранилища. // УИФ, 1973, №1.
23. Дуке Х. Туябугузские поселения бургулюкской культуры. Ташкент. “Фан” 1982.
24. Дуке Х. Бургулюкская культура. // Древности Туябугуза. Ташкент “Фан”, 1978.
25. Буряков Ю.Ф. Бассейн среднего Яксарта в древности и раннем средневековье // Городская культура Бактрии – Тохарисгана и Согда. Ташкент, 1987.
26. Алимов К., Буряков Ю.Ф., Дуке Х. Древности Туябугуза. Ташкент. “Фан” 1978.